

2022 YIL - «INSON QADRINI ULUG'LASH VA FAOL MAHALLA YILI»



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 01 2022 YIL 25 YANVAR

OLIY TIBBIY TA'LIM ISLOHOTLARINING YANGI BOSQICHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini kamaytirish, o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifalari qo'yilgan edi.



Oliy ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirish maqsadida "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"da Prezidentimizning 2021 yil 24 dekabrda qarori e'lon qilindi. Unda ushbu ta'lim muassasalariga qator qo'shimcha vakolatlar berilishi ko'zda tutilgan.

Shuni aytib o'tish lozimki, so'ngi 4-5 yil ichida yuqori malakali va raqbatbardosh mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, Respublikamizda turli yo'nalishlar bo'yicha mavjud talablardan kelib chiqib yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Mamlakatimizda jahondagi yetakchi universitetlarning filiallari o'z faoliyatini

boshladi, ularning moddiy-teknika bazalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Qator oliy o'quv yurtlari, xususan, tibbiyot institutlarida simulyatsiya o'qitish markazlari faoliyat ko'sratmoqda. Bu talabalarning klinik amaliyotni mukammal hamda chuqur o'rganishlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan bir qatorda bugungi kuniga qadar tibbiyot oliy o'quv yurtlarining boshqarish tizimi jahon andozalari talablarga to'liq javob bermasligi o'qitish tizimiga yangicha yondoshishni tezkor amalga oshirishga to'sqinlik qilar edi. Ushbu nuqtai nazardan mazkur qarorda keltirilgan va joriy etilishi rejalashtirilayotgan o'zgarishlar yuqori malakali hamda raqbatbardosh kadrlar



tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ular tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'ta dolzarb bo'lgan muammolarni hal etishda muhim qadam bo'ladi. Chunki XXI asrda barcha soha qatori tibbiyot ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Ayni vaqtda tibbiyot oliy o'quv yurtlarida berilayotgan ta'lim zamonaviy amaliy tibbiyotdan orqada qolmoqda. Buning sabablaridan biri o'quv jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan rasmiy hujjatlarni tasdiqlash uzoq vaqt talab etilishi hamda erkin faoliyat yuritish uchun qator to'sqinliklarning mavjudligidir.

(Davomi 2-betda)

Hikmat



Mahalla – ulug' qadriyatlarimizning beshigi.

Hikmat



OLIY TIBBIY TA'LIM ISLOHOTLARINING YANGI BOSQICHI

(Boshi 1-betda)



Bu esa hujjatlarni tezkor takomillashtirishga imkon bermaydi, binobarin, o'quv jarayoniga amaliyot talabalaridan kelib chiqib o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritishga to'sqinlik qiladi. Qarorda keltirilgan hujjatlarni tasdiqlash oliy o'quv yurtlari vakolatiga o'tkazilishi va amaliy tibbiyot talabalaridan kelib chiqib, unga tezkor o'zgartirishlar kiritilishi, malakal shifokorlar tayyorlashga sezilarli darajada ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, hozirga qadar magistratura yo'nalishlari hamda ularda ta'limga davomiyligini belgilash yangi mutaxassisliklar ochish yoki ayni vaqtida zarur bo'lmaganlarini qisqartirish, talab va taklifni inobatga olib, ularning to'lov kontrakt shartnomalari qiyomatini belgilash, shuningdek, qabul kvotlari sonini ko'paytirish yoki kamaytirish kabi masalalarni hal qilishda qiyinchiliklari mavjud edi. Qarorda keltirilganidek ushbu vakolatlarni oliy o'quv yurtlarining tasarrufiga o'tkazilishi qayd etilgan holatlarni amaliyot talabalaridan kelib chiqib o'zgartirish imkonini yaratadi.

Respublikamiz rahbari tomonidan oliy malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Unda shu jumladan, oliy o'quv yurtlarida ilmiy darajaga ega bo'lgan kadrlar salohiyatini oshirish ko'zda tutilgan. Lekin ayni vaqtida doktoranturaga qabul, uning soni, kontrakt to'lovi qiymati, unga differential yondoshuv kabi masalalar hamda doktoranturaga qabul qilish oliy o'quv yurtlari tomonidan mustaqil hal etilishi ko'zda tutilgan. Bu u yoki bu yo'nalish uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni doktoranturaga tanlov asosida qo'shimcha ravishda qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Har bir yetakchi professor-o'qituvchilar va olimlarning imkoniyatlarini inobatga olib ularni bir vaqtning o'zida bir necha ilmiy ishlarga rahbarlik qilishga ruxsat berilgan. Bu holat ilmiy darajali kadrlar salohiyatini oshirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun xizmat qiladi. Chunki, ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan professorlar bir vaqtning o'zida besh va undan ortiq ilmiy ish olib borayotgan doktoranturlarga rahbarlik qilish imkoniyatiga ega. Bunday yondoshish kelajakda yuqori malakalik kadrlar tayyorlash va uning salohiyatining oshishiga olib keladi.

Ma'lumki, bugungi kunda o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'limga muassasalarini bilan akademik mobililik juda kam holatlarda amalga oshiriladi. Bunga sabab, o'quv soatlarining o'zaro mutanosib emasligidir. Qarorda keltirilgandek uning oliy o'quv yurtlari ixtiyoriga o'tkazilishi, o'zaro akademik mobilikkini amalga oshirish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, barcha o'quv adabiyotlari, ya'ni darsliklar, ilmiy monografiyalar, o'quv uslubiy qo'llanmalar oliy o'quv yurtlari kengashi tomonidan tasdiqlanishi qayd etilgan.

Ko'zda tutilgandek, ta'limga sifatini ichki nazorat qilish mexanizmini belgilash va joriy etish har bir oliy o'quv yurti o'z yo'nalishi va amaliyot talabalaridan kelib chiqib, uning sifatini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ma'lumki hozirgi qadar, oliy o'quv yurtlarining shtat jadvallari oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Unda quiyi kurslarda bevosita oliy ta'limga yo'nalishi bilan bog'liq bo'lmagan fanlarga ham ortiqcha soatlar ajratilib guruhlardagi talabalar soni mutaxassislik fanlaridagi talabalar soniga bir xil qilib belgilanadi. Bunday

yondoshish o'qitilayotgan fan hamda uning predmetlarining oddiy yoki murakkabligi va ushbu fanning o'rganilayotgan kasbiy yo'nalishdagi ahamiyati hisobga olinmaydi.

Masalan tibbiyot institutlarida aksariyat hollarda magistraturada ta'limga oladigan talabalar soni bir shtat birligi uchun o'nta qilib belgilangan. Vaholanki jarrohlik, kardiologiya neyrochirurgiya va boshqa ayrim mutaxassisliklarni o'rganilayotgan guruhlardagi talabalar soni o'nta bo'lishi tegishli mutaxassislikni mukammal egallash imkoniyatini yaratmaydi. Bu ayniqsa tibbiyot institutlarining klinik mutaxassisliklari uchun juda ko'p bo'lib, ta'limga sifatiga yetarli darajada javob bermay aksincha vaqt nuqtai nazaridan salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli ko'proq.

Shuningdek, oliy o'quv yurtlarining tuzilmalari shtat birliklarini belgilash vakolatini ham oliy ta'limga muassasasi ixtiyoriga o'tishi, shtat birliklarini talab va tashkifdan kelib chiqib, tezkor o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Undan tashqari qarorda pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish yoki ishshdan ozod qilish hamda ichki rotatsiyaga oid tartiblarni ham tegishli oliy o'quv yurtlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Qarorning ilm-fan va uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan davlat byudjeti mablag'larini hisobidan moliyalashtirilmaydigan tijorat va notijorat tashkilotlarini tashkil etish bandi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu oliy o'quv yurtlarini qo'shimcha mablag'lar ishlashga yo'naltiradi hamda professor-o'qituvchilarni moliyaviy tomonidan rag'batlantirish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga chet el fuqarolari yoki chet elda ta'limga olayotgan talabalarini respublikamizdag'i Davlat oliy ta'limga muassasalariga ko'chirish tegishli institutlar vakolatiga o'tkazish ko'zda tutilgan. Hozirga qadar oktyabr, noyabr hatto dekabr oyalarida ham talabalarga bir oliy o'quv yurtidan boshqasiga ko'chirishga ruxsat berilmoqda. Bu holat ta'limga sifatiga keskin va pirovard oqibatda malakali mutaxassislar tayyorlashga salbiy ta'sir etadi. Shu sababdan talabalarning bir o'quv yurtidan boshqasiga o'tish muddati har bir oliy o'quv yurti tomonidan individual belgilanishi va bizning nazarmizda tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun bu jarayon 15 sentyabrgacha yakunlanishi lozim. Bu talaba tomonidan fanlarni to'liq o'zlashtirishga imkon yaratiladi.

Ma'lumki hozirgi vaqtida ta'limga yo'nalishlari mutaxassisliklarni oshish yoki ularni tugatish oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligida tasarrufida edi, vaholanki jadal rivojlanib borayotgan zamon talabiga ko'ra uning uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash yoki talab bo'lmagan yo'nalishlari faoliyatini tugatish tezkorlik bilan hal etilishi lozim. Prezident qarorida ushbu vakolatni ham oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi mavjud talablardan kelib chiqib muammoni tezkor hal qilish uchun sharoit yaratadi.

Shuningdek, qarorda keltirilgan Vazirlar Mahkamasi tasarrufida bo'lgan ayrim vakolatlarni Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligiga o'tkazish to'g'risidagi bandlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, qator masalalarni tezkor yechish uchun xizmat qilladi.

Xulosha qilib aytganda "Davlat oliy ta'limga muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori oliy o'quv yurtlari vakolatlarining kengayishi mavjud muammolarni tezkor hal qilishiga imkon beradi. Natijada nafaqat oliy ta'limga muassasalarining rahbariyati balki professor-o'qituvchilarning ham mas'uliysi oshishiga olib keladi. Umid qilamizki, bu holat pirovard natijada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga zamin va imkon yaratadi.

**A.SHADMANOV,
Toshkent tibbiyot
akademiyasi rektori, professor**



2022 yil – «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»

INSON QADRINI ULUG'LASH – OLIY MAQSAD

Bugungi zamonda inson va u bilan bog'liq barcha qadriyatlar tez-tez tilga olinib, bu boradagi fikrlar va masalalar tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Ma'lumki, inson dunyoga kelar ekan ulg'aygan sari ma'lum bir maqsad, umid bilan yashaydi. Bugungi qadriyatlar o'zgarayotgan davorda inson manfaatlari ya'ni, unga yaratilgan shart-sharoitlar, qulayliklar va boshqalar muhim ahamiyatga ega. Duyodagi taraqqiy etgan davlatlarning barchasida inson qadri e'ozzlanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz". Keksalar "Odam bolasi hayotdan rozi bo'lsa, tog'ni talqon qiladi" deyishadi. Bu — ulug'vor maqsad, ezgu amal, abadiyatga daxldor fikrat.

Bugun odamlarni rozi qilish — kelajagimizni go'zal, betakror, ulkan salohiyat va qudrat kasb etishini ta'minlaydi. Bu — inkor qilib bo'lmas haqiqat. Chunonchi, baxtili

odamlargina dunyoni yangilash, o'zgartirishga qodir. Bugun O'zbekistonda yangi davr boshlandi. Xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning darbu tashvishlari, muammolarini ijobji hal etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Davlat tashkilotlari ish faoliyatida "mahallaga tushish", "xalq ichiga kirish, uning "dardiga qulq solish", "tashvishiga sherik bo'lish" va "muammolarni joyida hal etish" tamoyillari asosiy mezonga aylandi

Eng muhimi, mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarimizning negiziga qo'yildi. O'z navbatida, hayotimizda "Davlat – insonlar uchun" degan xalqchil g'oya, izchillik bilan qaror topib bormoqda. Xalqimiz manfaati, davlatimiz salohiyati yo'lidagi ulkan o'zgarishlarni esa odamlar o'z hayotida sezmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yangi 2022 yilni O'zbekistonda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilinishi ham bejizga emas.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston o'z tanlagan yo'llini yangi marra va yangi yutuqlar bilan davom ettiradi. Zotan, yetti yo'nalishdan iborat Yangi O'zbekiston strategiyasi barcha sohalar jumladan, aholi bandligini ta'minlash, fuqarolarimizga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda aholi daromadini oshirish kabi ustuvor vazifalarni o'z ichiga olgan.

Bunday ulug'vor maqsadlarni amalga oshirishda barchamizdan kuch va g'ayratlarni birlashtirish, bu boradagi barcha sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish tafab qiladi. Xulosa qilib aytganda, "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi" inson inson qadrini ulug'lashga xizmat qiladi.

**D.NORQULOV,
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi
professori, falsafa fanlari doktori,
G.O'TAYEV,
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta
o'qituvchisi**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASIDA QANDAY O'ZGARISHLAR BO'LADI?

Toshkent tibbiyot akademiyasida "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezidentimiz qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Unda Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori Alisher Shadmanov so'zga chiqib, mazkur qarorlar asosida akademiyada amalga oshiriladigan vazifalar xususida so'z yuridi.

Mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokida o'tkazilgan konferensiada oliy tibbiy ta'limning rivojlanish tendensiyasida raqamlashtirish, kredit-modul tizimi hamda simulyatsion o'qitishning dolzarb masalalari ham ko'rib chiqildi.

Xalqaro konferensiada

ta'kidlanganidek, endilikda tibbiyot yo'nalishlarining zamonaviy formatlari amaliyotga joriy etiladi. O'qishni ko'chirish masalasi yangi tartib bilan akademiya zimmasiga o'tadi. Boshqaruv o'zgarayotgan ekan, kuzatuv kengashi faoliyatiga ham yangiliklar kiritiladi. Yozgacha akademiyaning yangi binosida yangi zamonaviy ARM tashkil etiladi. Raqamlashtirish orqali shaffoflikka erishishning qulay imkoniyati yaratiladi.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi
matbuot xizmati**



OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI MEHNAT BOZORIDA KADRLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRADI

So'nggi 5 yilda yurtimizda barcha sohadagi kabi oliy ta'limgizimida ham jadal islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlarning tub mohiyatida oliy ta'limgiz muassasalariga yoshlarning qamrovini oshirish, ularni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'limgiz muassasalarini ilmiy salohiyatini, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta'limgiz muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish yotadi.

Yaqinda muhtaram Prezidentimizning «Davlat oliy ta'limgiz muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlari e'lon qilindi. Ushbu qaror 2021 yil 24 dekabr kuni matbuotda chop etilishi biz oliy tibbiy ta'limgiz muassasalarini xursandchiliga sabab bo'ldi. Qaror ilovasida e'lon qilingan moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'limgiz muassasalarini qatorida Toshkent tibbiyot akademiyasining borligi bizga juda katta mas'uliyat yukladi. Qaror bandlarini ko'rish ekanmiz, moliyaviy mustaqillikka 2022 yil 1 yanvardan boshlab kirish lozimlik ta'kidlangan.

Ushbu qaroring dastlabki bandida ta'limgiz xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini mustaqil belgilash aytib o'tilgan. Aksariyat xorijiy oliy ta'limgiz muassasalarida o'qitish

oliy ta'limgiz muassasasining o'zi belgilashi talabalarni intizomga chaqirishi bilan birga ijtimoiy himoyaga muhitoj talabalarga to'lash muddati va turini individual belgilash, talabaga qo'shimcha imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

Qaroring muhim bandlaridan biri, bu – ta'limgiz jarayoniga zamonaviga pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarini shartnomaga asosida jalb qilish va ularning mehnatiga haq to'lash bo'lib, bunda xorijiy mutaxassislarini ta'limgiz jarayoniga jalb qilish bilan birga talabalarga ta'limgiz berish sifatini oshirish, pedagoglar o'tasida erkin raqobatni shakllantirish imkonini beradi, bu esa pirovad natijada oliy ta'limgiz muassasasi reytingini oshirishga xizmat qiladi.

Professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish ham oliy ta'limgiz muassasalariga berilgan bo'lib, faoliyat yuritayotgan pedagoglar shtatlari sonini talabga qarab oshirish yoki kamaytirish imkonini beradi.

Qaroring eng muhim bandlaridan biri – o'z mablag'lari hisobidan talabalar uchun

ulardagi o'quv adabiyotlarning soni va sifati ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaroring xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish belgilangan bandi ayni muddao bo'ladi, chunki axborot resurs markazida talabalarining xorijiy adabiyotlar ma'lumotlarini o'zlashtirish maqsadida chet tillarini o'rganishga undaydi.

Ta'limgiz olayotgan talaba uchun barcha ta'limgiz yo'nalishlari va bosqichlari bo'yicha bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'ttacha xarajat miqdori hisoblab chiqilishi ham qaroring muhim bandlaridan biri bo'lib, ta'limgiz yo'nalishlariga va ta'limgiz olish bosqichlariga defferensial yondashuvga undaydi.

Moliyaviy mustaqillik berilayotgan oliy ta'limgiz muassasalariga ajratilayotgan davlat granti asosida ta'limgiz olayotgan talabalar uchun byudjet mablag'lari bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora hamda oliy ta'limgiz muassasasi o'tasida imzolanadigan bitim asosida ajratilishi tibbiy oliy ta'limgiz o'ziga xosligini inobatga olish imkonini beradi.

Bunda davlat granti asosida ta'limgiz olayotgan talabalar uchun ajratilgan byudjet mablag'lari oliy ta'limgiz muassasasining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag'larning qoldigi oliy ta'limgiz muassasasi ixtiyorida qoldirilishi mablag'larni tejamkorlik bilan taqsimlash imkonini yaratadi.

Ta'limgiz xizmatlari uchun to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'ttacha xarajat miqdordan kelib chiqib, biroq oliy ta'limgiz muassasasini o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta'limgiz xizmatlari bozoridagi o'zaro raqobat asosida belgilanishi ta'limgiz yo'nalishlarini va uning mohiyatini mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqib belgilanishi talabalarining ta'limgiz mas'uliyatini oshiradi.

Moliyaviy mustaqillik yana oliy ta'limgiz muassasalarining asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni sotishdan tushgan mablag'lari to'lig'icha o'z ixtiyorida qoldirilishi qarorda o'z aksini topgan. Shundan kelib chiqib moliyaviy surʼat-xarajatlar muvozanatini saqlash maqsadida moliyaviy nazorat tadbirlarini xolisona va mustaqil o'tkazadigan

(Davomi 5-betda)



qiymatini o'zi belgilaganligi tufayli har xil oliy ta'limgiz muassasalarida har xil qilib belgilangan.

Ushbu bandda oliy ta'limgiz muassasasining ilmiy salohiyatlari, uning moddiy-teknika bazasiga qarab o'qitish qiymati belgilanadi, bu esa oliy ta'limgiz muassasalarida imkoniyatlarni yaratishga undaydi. Bundan tashqari, talabalarining to'lov-kontrakt mablag'lari to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirishni

stipendiya va grantlar ajratish bo'lib, talabaning o'zlashtirishiga, uning faolligiga va ijtimoiy ehtiyojiga qarab ularga stipendiya belgilash talabalar orasida oliy ta'limgiz muassasasiga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va yaxshi bilim olishga motivatsiya qiladi.

Yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish uchun uning jozibadorligini axborot resurs markazidagi yaratilgan shart-sharoitlar,



(Boshi 4-betda)

ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati tashkil etilishi ham qarorda belgilab qo'yilgandir. Bundan tashqari, mablag'larning sarflanishi yuzasidan yuqori turuvchi vazirlikka (idoraga) har chorakda belgilangan tartibda hisobot berilishi ham olyi ta'lim muassasalari mas'uliyatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Moliyaviy mustaqillikni amalga oshirishda oshkoraliq mexanizmlarini ta'minlash maqsadida qarorda Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar, xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, amalga oshirilayotgan loyihiilar hamda tasarrufidagi mablag'lar, moddiy boyliklar va mulkdan foydalanish to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni o'z rasmiy veb-saytlariga muntazam joylashtirib borilishi ko'rsatilgan bo'lib, bu moliyaviy oshkoraliqni ta'minlaydi.

Shuningdek, mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish, jumladan, xodimlar mehnatiga haq to'lash va stipendiya to'lovlarini o'z vaqtida hamda to'liq amalga oshirish uchun javobgarlik tegishli olyi ta'lim muassasasi rahbarlari zimmasiga yuklanishi yanada mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat olyi ta'lim muassasalari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet mablag'larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanishi ham qarorda belgilangan.

Moliyaviy mustaqillik berilayotgan olyi ta'lim muassasalari talabalarni to'lov-kontraktlari miqdorini mustaqil belgilashi aytilgan, lekin talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati olyi ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim xizmatlari bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqib, biroq tegishli yo'nalish bo'yicha davlat olyi ta'lim muassasalarida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo'limgan miqdorda belgilanishi ta'kidlangan. Shu bilan birga, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari kesimida qabul shartlarida to'lov-kontrakt qiymati tabaqaqlashtirilgan miqdordorda belgilanishi mumkin. Bu ham mutaxassisliklari orasida raqobat uyg'otadi.

Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat olyi ta'lim muassasalarida kuzatuv kengashlarining bo'lishi, ularning vakolatlari:

olyi ta'lim muassasasining uzoq va o'rta muddatli strategik reytinginidan tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytinginidan yuqori o'rnlardan joy olish bo'yicha maqsadli choratadbirlari belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borishi;

olyi ta'lim muassasasining o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

olyi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

olyi ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'satkichlarga erishilishi bo'yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o'rganish hamda axborotini eshitish;

olyi ta'lim muassasasining ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o'tkazish uchun qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbiralarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

olyi ta'lim muassasasini rivojlantirish va moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish;

ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, olyi ta'lim muassasalarining innovatsion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

olyi ta'lim muassasasi rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

olyi ta'lim muassasasi hamda ular huzuridagi ta'lim va ilmiy muassasalarning rahbar va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish tartibini mustaqil belgilash;

olyi ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari rivojlantirish



jamg'armasi mablag'lardan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash kiritilgandir.

Shuningdek, qarorda davlat olyi ta'lim muassasalari talabalarini elektron shartnomalar tuzish, to'lov-kontrakt asosida o'qitish xarajatlarini onlayn to'lash va mablag'lar hisobini yuritish bo'yicha yagona axborot tizimini ishlab chiqish hamda Moliya vazirligi va Markaziy bankning axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta'minlash belgilab qo'yilgandir.

Bunda olyi ta'lim muassasasi hamda bitiruvchilar o'rtasida uzyvi aloqa o'rnatish, ularning kelgusi professional faoliyati, erishgan yutuqlari va tajribalarini o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borish, ular bilan talabalar o'rtasida aloqa o'rnatish, mahorat darslari tashkil etish yuzasidan zarur choralar ko'rishi ta'kidlangan. Bunda bitiruvchilarning kelgusida erishgan yutuqlari olyi ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'satkichlaridan biri hisoblanishi ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, olyi ta'lim muassasalari rahbarlarining fuqarolarga ta'lim xizmatlari ko'satish qamrovi va sifatini oshirish, ta'lim jarayonini ilg'or olyi ta'lim standartlariga muvofiqlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha belgilangan ko'satkichlarning bajarilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka muntazam ravishda hisobot berib borishi nazarda tutilgan.

Tibbiyot olyi ta'lim muassasalariga ularning klinikalarida moddiy-teknik bazani mustahkamlash, shuningdek, kapital va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun o'zlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan zarur mablag'lar sarflashga ruxsat berilishi klinik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quv auditoriyalar sonini oshirish, klinik bazalarda sharoit yaratishga imkon tug'iladi.

Bundan tashqari, davlat olyi ta'lim muassasalari Soliq kodeksiga muvofiq soliq to'lashdan ozod etilganligi, moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat olyi ta'lim muassasalariga qonunchilikda olyi ta'lim muassasalari uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlar tatbiq etilishi, moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat olyi ta'lim muassasalariga ijtimoiy soliqning 12 foiz miqdordagi stavkasi qo'llanilishi bojxonada bojidan ozod qilish bo'yicha imtiyoz o'quv hamda ilmiy laboratoriya jihozlari, maxsus asbob-uskunalar, o'quv, ilmiy-metodik adabiyotlar, o'qitishning texnik vositalari, multimedia mahsulotlarini olib kiruvchi barcha yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilishi olyi ta'lim muassasalariga mablag'larni tejash imkoniyatlarini yaratadi.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kundagi yaratilayotgan sharoitlar, tibbiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sifatini oshirishga, olyi ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishga, xalqaro ta'lim maydonida o'z o'rnni egallash imkonini beradi.

**Alisher SHADMANOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor**



14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni

HARBIYLAR SHIFOKORI VA SHIFOKORLARNING SERQIRRA IJODKORI

Hayotini harbiy xizmatga baxshida etgan ijod ahli borki, ular tufayli muqaddas tuyg'ular o'zgacha ohangda madh etiladi. Iskandar Rahmon mana shunday o'tkir qalam sohibi. O'zbekiston xalq shoiri Po'lat Mo'min ta'biri bilan aytganda, Iskandar Rahmon harbiylar shifokori va shifokorlarning serqirra ijodkoridir.

Serqirra ijodkor, Qurolli Kuchlar faxriysi, iste'fodagi tibbiy xizmat podpolkovnigi, "Sog'liqni saqlash a'llochisi", I darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni sohibi, O'zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar ijodi uyushmalari a'zosi, Turon Fanlar akademiyasi akademigi Iskandar Rahmon 1937 yilning 20 oktyabrida Toshkent shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Toshkent davlat tibbiyot institutida tahsil olgan. Ijodkorining ona Vatanga muhabbat, burchga sadoqat, harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi 30 dan ziyod nazmiy va nasriy asarlari e'lon qilingan, 50 dan ortiq she'rlari taniqli xonandalar, harbiy xizmatchilar, ijodiy guruhlar tomonidan ijro etilib, san'atsevar xalqimiz ma'naviy mulkiga aylangan.

Taniqli shifokor Iskandar Rahmon Toshkent Davlat tibbiyot institutini tugatganidan so'ng, qariyb 27 yil davomida harbiy xizmatda faoliyatini davom ettirgan. Tabiiyki, uning rafiqasi Sharofatxon Saidvalxon qizi turmush o'tqog'i qayerda bo'llmasin, yosh bolalar bilan o'sha yerda bo'lib, musofirchilikning azob-uqubatlariga bardosh berib, yurt sog'inchı, Vatan tuyg'usi bilan yashagan.

– Darhaqiqat, harbiylar oilasi boshqa oilalardan anche farq qiladi, – deydi qahramonimiz. – Sababi, bu oila el-yurt, Vatan manfaatlarini har narsadan ustun, ulug' ko'rib, dil amri bilan doim safarbar, kamarbasta holatda, harbiylar iborasi bilan aytganda, o'qlangan miltiqdek qishin-yozin, kunu tun xizmatga hozir-nozir, tuyyor, shay bol'adi. Uning bor-yo'q bisoti, boyligi bir-ikkiti jomadonga joy bo'ladi-yu, moslashtirilgan yerda, daladami yo cho'lda chodir ostida harbiy libosini o'rin-ko'rpa, yostiq o'rnida ko'rib, issiq-sovuq, borlik-yo'qlikka chidab, ko'nikib yashayveradi. Bunday ko'chmanchi, romantik hayotga hamma ham dosh berolmaydi. Bunga odam ruhan va ma'nан tayyor bo'lishi kerak.

1961 yilda institutni tugatganimdan so'ng uzoq muddatli harbiy xizmatga chaqirildim. Xizmatga ketmasimdan oldin albatta, bir mo'min-musulmonning qiziga uylanib ketishim asosiy muammo bo'lib goldi. Uzoq o'ylanib qoldim. Uylanishning o'zi bo'ladi? Bunga sharoitim ham, mablag'im ham yo'q edi. Sababi, bundan uch yil avval 44 yoshli otamidan to'satdan aylilib, jo'jabirday yetti bola yetim bo'lib, mushtipar onamiz, yaqin qarindoshlarimiz panohindcha chirqillab qolgan edik. Uyimizga keladigan yangi a'zo nafaqat menga rafiqqa, jangovar do'st, balki,

eng avvalo, onamga hamkor, madadkor, maslahatchi, yosh uka-singillarimga ham Ona, ham Opa, ham mehribon sirdosh kelinoyi, sabr-toqatli tarbiyachi ham bo'lishi zarur edi. Shuni nazarda tutib, avvalo, uyim-joyim deydigan, nasl-nasabi toza, imon-e'tiqodi mustahkam, o'zimizbop, jaydari oiladan kelin olishimiz, "ko'rpamizga qarab, oyoq uzatishimiz" shart edi. Shunday qildik ham. Ko'dan beri institutda ko'z ostimga olib, pinhona sevib yurgan bir tanish qiz, rafiqam Sharofatxonning nomini va uning yashash manzilini yuimdagilarga aytdim.

Albatta, bundan oldin kelinlikka nomzodim bilan uchrashib, o'tradagi bor muammolar va talablarni ro'y-rost, ochiqdan-ochiq gaplashib, kelishib, ahflashib oldik.

Har safar harbiy xizmatga ketar ekanman, hayotimiz asoson ona yurdan uzoqda, musofirchilikda o'tishi, Toshkentga yilda bir marotaba, u ham bo'lsa, mehnat ta'ili vaqtidagina kelishimizni bilardik. Shu boisdan ham boriga qarab yashashimiz, kam-ko'stlarimiz keyinchalik peshonamizga bersa to'lib ketishi, eng asosisi, yolg'iz Onaizorimiz bag'riga kirib, bor yoshlik kuchimiz, g'ayratimiz, topgan-tutganimizni yosh uka-singillarimizning kelajagi, o'qishi, tarbiyasiga bag'ishlaymiz, el-yurt muhabbatini qozonish lozimligi haqidagi o'ylar edik. Taqdir ekan, turmush qurdik. Ahdimizga, bir-birimizga sodiq qoldik. Oldimga qo'yan maqsad sari odimladim.

14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni arafasida Iskandar Rahmonning harbiy-vatanparvarlikni tarannum etuvchi "Vatanga qasamyod onaga qasamyoddir" nomli she'reyi kitobining chop etilishi barchamiz uchun esda qolarli tuhfa bo'ldi.

Kitobda jangovar she'rlar, qo'shiqlar, marshlar va yurtni madh etuvchi sara maqolalar o'rinni olgan bo'lib, unda ijodkorining pokiza tuyg'ulari, jo'shqin hislari, shukronalik aytimlari baland pardalarda jarang sochadi.

Yangi O'zbekistonni mustahkam poydevori qurilayotgan ushbu muborak kunlarda hurmatli ustozimiz, harbiylar shifokori va ijodkorlarning serqirra ijodkor Iskandar Rahmonga yana bir bor kalom, ilm va ifron oshuftalariga yangi hikmatga, ibratga, xislatga, falsafaga to'la kitob muborak bo'lsin deb qolamiz.

Yana bir bor Vatan himoyachilari kuni bayramingiz qutlug' bo'lsin aziz ustoz!

**Solih YOQUBOV,
O'zbekistonda xizmat ko'satgan
madaniyat xodimi**



ASSALOM, ARMIYAM, ULUG' OSTONAM!

(marsh)

*Assalom armiyam, ulug' ostonam,
Onaday mo'tabar, qutlug' ostonam!
Bag'ringda to'lamiz kuchga, quvvatga,
Izmingda bo'lamiz mardonha har dam!*

*Armiyam, qir-adir, tog'lar makoning,
Daryolar, cho'l, sahro – jon-u jahoning!
Osmoning, sarhadning erur daxsiz,
Toki bor saflarda jasur posboning!*

*Sen mardlik maktabi – sabog'idirsan,
Tinchlik va adolat bayrog'idirsan!
Mustaqil yurtimiz O'zbekistonda,
Barqaror tinchlikning mayog'idirsan!*

*Armiyam, qudratli, shon-shavkatli bo',
Jangovar, shiddati, shijoatl bo'il!
Turamiz safingda yelkama-yelka,
Yov makrin buzishga berib qo'liga qo'!!*

BAYRAMINGIZ BO'LSIN MUBORAK!

*O'zbekiston mard o'g'onlari,
Bahodirlar, pahlavonlari,
Tinchligimiz chin posbonlari,
Bayramingiz bo'lsin muborak!*

*Qayda bo'l mang, yerd, osmonda,
Tog'mi, dala, cho', biyobonda,
Bu muqaddas ona makonda,
Bayramingiz bo'lsin muborak!*

*Vatan ishq qo'nglingizdadir,
Yurt taqdri qo'lingizdadir,
Nigohimiz yo'lingizdadir,
Bayramingiz bo'lsin muborak!*

*Sizga tafsiz, botir yigitlar!
Ol'ovyurak, nodir yigitlar!
Ko'ksi qalqon, chayir yigitlar,
Bayramingiz bo'lsin muborak!*

Iskandar RAHMON



Professor, tibbiyot fanlari doktori juda ko'plab shogirdlarning sevimli murabbiysi, kamtar va mehribon inson Farida Mirzayevna Ayupova 20 yildan ortiq vaqt Toshkent tibbiyot akademiyasining 1-son akusherlik va ginekologiya kafedrasida kafedra mudiri bo'lib faoliyat olib bordi. Respublikaning yetakchi akusher-ginekologi bo'lgan Farida Ayupova o'z kasbining yetuk mutaxassisini sifatida ham chet ellarda tanilganini alohida ta'kidlash joiz.

F.Ayupova 1957 yilda xizmatchi oilasida dunyoga keldi. 1980 yilda Toshkent Davlat Meditsina institutini tugatib, 1981 yilda akusherlik va ginekologiya mutaxassisligi bo'yicha internaturani tugallashga muvaffaq bo'idi. Mustaqil ish faoliyatini Respublika ilmiy-tekshirish instituti qoshidagi klinikasida ordinator lavozimida boshladi. 1985 yilda reproduksiya bo'limida kichik ilmiy xodim vazifasida faoliyat olib bordi. Uning bu yo'nalishdagi faoliyati 1990 yilda tibbiyot fanlarini himoya qilish bilan o'z yakunini topdi. Shundan so'ng Farida Mirzayevna institutning ilmiy kotibi bo'lib ish faoliyatini boshladi.

F. A y u p o v a respublikada keng miqyosda o'smir qizlar salomatligini o'rganib, ilmiy-tekshirish ishlarini olib bordi. 1997 yilda «Reproduktivnoye zdrovyye devochek podrostkov» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. U 2000 yilgacha o'smir qizlar ginekologiyasi bo'limini boshqarib kelgan. Shuningdek, 10 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligida o'smir qizlar ginekologiyasi bosh akusher-ginekolog bo'lib faoliyat olib bordi. 2000 yildan boshlab F.Ayupova TTAning o'quv ishlari bo'yicha prorektori va akusherlik va ginekologiya kafedrasи mudiri etib tayinlangan. Ustoz 2000-2021 yillargacha mazkur kafedrani boshqardi.

Alovida ta'kidlash joizki F.Ayupova akusherlik va ginekologiya dolzarb muammolarining yechimida katta hissa qo'shdi. Uning sa'y-harakati bilan respublikada ilmiy-pedagogik va malakali amaliyat vrachlari tayyorlandi. Jumladan, 40 dan ziyod tibbiyot fanlari nomzodlari va tibbiyot doktorlarni tayyorlashga hissa qo'shdi. E'tirof etish joizki u tayyorlagan shogirdlar respublika bo'ylab akusherlik va ginekologiya sohasi rivojida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

O'Z KASBINGIN FIDOYISI EDI

Shogirdlarning ko'pchiligi hozirgi kunda mamlakatimizning tibbiyot oliy o'quv yurtlari, respublika viloyat perenatal markazlarida akusherlik va ginekologiya bo'limlariga rahbarlik qilmoqda.

F.Ayupova 330 dan ortiq ilmiy mahalliy va xorijiy maqolalar, 3 ta monografiya va 6 ta darslik yaratdi. Uning chuqr ilmiy salohiyati va tajribasi mamlakatimiz hududlarida tibbiy yordam ko'rsatish darajasini oshirish, tibbiy maslahatlar berishga ko'maklashdi. 12 yil davomida sog'liqni saqlash vazirligi topshirig'iga binoan Xorazm viloyatida onalik va bolalikni muhofaza qilishga mas'ul bo'lib, ushbu hududda onalar va perenatal o'limni kamaytirish bo'yicha

katta sa'y-harakatlar qildi.

"Akusherlik va ginekologiya" - 14.00.01 mutaxassisligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining eksperti, TTA ilmiy Kengashi a'zosi, Mudofaa bo'yicha ilmiy Kengash a'zosi, ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi Yevropa va dunyodagi ko'plab kongresslarga delegat bo'lib, u yerda taqdimotlar qildi.

F.Ayupova bir necha grant ilmiy tadqiqot loyihibariga rahbarlik qilgan.

O'zbekistonda akusherlik va ginekologiya fani rivojiga ulkan hissa qo'shanini alohida ta'kidlash joiz. Minimal invaziv endoskopik jarrohlik zamonaviy usuliga ega mohir mutaxassis akusher-ginekolog, ko'plab oilalar uning yordami bilan sog'lom farzandlar ko'rishgan.

Afsuski jiddiy kasallik tufayli F.Ayupova bu dunyoni tark etdi. 1-akusherlik va ginekologiya kafedrasи xodimlari Ayupova Farida Mirzayevnaning bevaqt vafoti munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga chuqr ta'ziya izhor qiladi.

1-akusherlik va ginekologiya kafedrasи jamoasi xotirasida butun umri mazmuni o'z kasbiga sadoqat, hurmat bilan yo'g'rilgan Farida Ayupovaning porloq yodi saqlanib qoladi... Oxiratlari obod bo'lsin!

1-akusherlik va ginekologiya kafedrasи jamoasi nomidan professor G.BABAJOANOVA, dotsent D.XODJAYEVA



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2022 yil yanvar)

№	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	assistant – 0,25
2.	1-son akusherlik va ginekologiya	assistant – 1,0
2-son davolash fakulteti		
1.	2-son bolalar kasalliklari	assistant – 0,5
Malaka oshirish fakulteti		
1.	Vrachlar malakasini oshirish	assistant – 1,0
Tibbiy profilaktika fakulteti		
1.	Atrof-muhit gigiyenasi	katta o'qituvchi – 1,0
2.	Epidemiologiya	katta o'qituvchi – 1,0
Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMX fakulteti		
1.	O'zbek va xorijiy tillar	Rus tili: o'qituvchi – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi. Manzil: Olmazor tumani, Farobi ko'chasi, 2-uy.

KORONAVIRUS BALOSINI JILOVLASHDA SOG'LOM TURMUSH TARZINING AHAMIYATI

Ma'lumki, koronavirus pandemiyasi, ya'nning tajovuzkor shtammi tarqalganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tarqalganiga dekabr oyida ikki yil to'ldi.

Hammaniz e'tibor berganmizki, har qanday epidemiyasi va pandemiyalar davrida kasallikning yuquvchanligi barcha odamlarda bir xil kechmaydi. Hatto, o'n to'qqizinchasi asriga qadar bot-bot junbushga kelib butun o'lkalar, shahar va qishloqlarni o'lik sahrolarga aylantirgan vabo, qora o'lat, kuydirgi kabi o'ta og'ir yuqumlar ham hammaga barobar yuqmag'an. Kimningdir immuniteti baquvvat bo'lib, bu balolarga bardosh bera olgan. Demakki immun tizimimizni muntazam rag'batlantrir turishimiz umrimiz uzunligi va turmushimiz sifatiga katta ta'sir ko'satadi.

Tibbiyotda ham shunday, vaqt-i vaqt bilan immunitetni rag'batlantrish, ahyon-ahyonda badantartibiya va sog'igom turmush tarzi bilan shug'ullanish yetarli emas, buni har kuni, har soat amalda tutishimiz lozim. Bu borada idizi bi necha ming yilga borib taqalgan xalq tabobati vositalari juda asqotildi. Quyida shulardan bir nechtasini tavsija etamiz.

Asabni asrang. Har qanday kasallik turmushning turli-tuman noxush hodisalarini va ruhiy zarbalar oqibatida ham zo'rayishi mumkin. Noxush xabar oqibatida odamda bir kecha-kunduz mobaynida soch-sogoli oqarib ketganligi ham adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Buning asosiy sababi stress oqibatida qon tomirlar keskin toraydi, bosh miya va boshning

sochli qismiga kislrorod hamda oziq moddalar kelishi ozayib, sochlar bir kechada to'kilishi yoki oqarib ketishi kuzatiladi. Asab – ruhiy omillar organizmning bir qancha tizimlari orqali bosh miyaga beriladi. Asabi buzilmaydigan og'ir vazmin odamlar pandemiya davrida ham qo'shimcha stresslarga tushmasdan kasalikni oson yenganliklari ko'p marta guvoh bo'ldik.

Zararli odatlardan voz keching. Ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandalik, badnafslik aynan mana shunday yashash tarzining mudhish va bedavo kasalliklardan hisoblanadi. Bedavo deyishimizga sabab bor ichkilikbozlikqa qarshi insoniyatning ongli qismi azaldan kurashib keldi. Alkogol, narkotik moddalar qatoriga kirib, odatda mastlik holatini keltirib chiqarsa-da, hamma vaqt-i immunitetni zaflantirishga, ayrim hollarda og'ir zaharlanishga ham sabab bo'ladi.

Inson vujudidagi barcha a'zo va tizimlarga tamaki tutuni katta ziyon yetkazadi. U o'pkalarning, me'daichak yo'lining shiliq qavatlarini ta'sirlab, yallig'lanishga olib keladi. Tamaki tutunining asosiy zararlovchi moddasi – nikotindir. U vegetativ asab tizimi periferik (chetdag'i) markazlariga ta'sir ko'rsatib, qon tomirlar tonusiga va yurak faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kashandaning o'zi bilan bir qatorda chekmaydiganlar ham zaharlanadilar. Tamaki tutunining deyarli yarmi kashandaning atrofida turgan odamlarning o'pkalariga tushadi.

Tamaki ta'sirida yuzaga keluvchi kasalliklarning asosiy profilaktikasi – undan butunlay voz kechishdir.

Jismoniy tarbiya va sport vositasida immunitetni mustahkamlang. Buning uchun muntazam ravishda ertalablar 5 chaqirimgacha yugurish, sport va suzish havzalariga tashrif buyurishimiz lozim. "Badantartibiya har qanday dorining o'rnnini bosa oladi, ammo birorta doni badantartibiya o'rnnini bosa olmaydi" degan edi tabobatning otasi Gippokrat. Badantartibyaning eng samaralisi va immunitetni yaxshi oshiruvchilari yugurish va suzishdir, bunda deyarli barcha mushaklar, paylar, bog'lamlar, bo'g'imirlar, suyaklar ishtirot etadi.

Ortiqcha vazndan xalos bo'ling. Vazningiz me'yordami yo'qmi, bilishning eng oson va sodda formulasi – bo'yingizni o'lchang va undan yuzini ayirib tashlang. Qolgan ko'satkich sizning kilogrammlardagi me'yoriy vazningiz hisoblanadi. Pandemiyada davrida asosan nobud bo'lganlar yoki kasallik asoratli hamda qiyin kechganlarning aksariyati ortiqcha vazn sohiblari ekanligini ko'rdik.

Ana shu oson va oddiy tavsiyalarga amal qilib yurilganidan keyin xalq tabobati vositalari yaxshi samara beradi. Bu esa uzoq umr ko'rishni ta'minlaydi.

**Alijon FAQIROV,
Xalq Tabobati akademiyasi akademigi,
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi
Qutbiddin NIZOMOV,
Sog'liqni saqlash a'lchisi, olyi toifali
allergolog**

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RISOGRAPHida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobi
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi